



Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarning o'rganish jarayoniga ijobiy ta'siri

Nuriddinova Mohlaroyim Shavkatjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: m.nuriddinova@fdu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0777-450X>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish jarayonida interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Interfaol yondashuvlar orqali tashkil etilgan darslarning o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va qiziqishini oshirishdagi ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tajribalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida interfaol metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli asoslab berilgan. Bundan tashqari, interfaol metodlarning o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ham ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan samarali foydalanish o'quv jarayonini yanada jonlantiradi, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va bilimlarni chuqur hamda mustahkam o'zlashtirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** an'anaviy ta'lim, boshlang'ich sinf, interfaol metodlar, o'qitish metodlari, kommunikativ qobiliyat, faol o'rganish, jamoa bilan ishlash, innovatsion metodlar.*

Положительное влияние интерактивных методов на процесс обучения в начальных классах

***Аннотация.** В данной статье раскрываются роль и значение интерактивных методов в процессе обучения учащихся начальных классов. Проанализировано положительное влияние уроков, организованных на основе интерактивных подходов, на повышение познавательной активности, развитие самостоятельного мышления и интереса учащихся. Также на основе зарубежного опыта и современных педагогических подходов обоснована роль интерактивных методов в*

повышении эффективности обучения. Кроме того, раскрыто значение интерактивных методов в формировании у учащихся навыков сотрудничества, коммуникации, решения проблемных ситуаций и развития критического мышления. Результаты исследования показывают, что эффективное использование интерактивных методов оживляет учебный процесс, стимулирует активное участие учащихся и способствует глубокому и прочному усвоению знаний.

Ключевые слова: традиционное обучение, начальная школа, интерактивные методы, методы обучения, коммуникативные способности, активное обучение, командная работа, инновационные методы.

The positive impact of interactive methods on the learning process in primary education

Annotation. *This article examines the role and importance of interactive methods in the learning process of primary school students. The positive impact of lessons organized through interactive approaches on enhancing students' cognitive activity, independent thinking, and interest is analyzed. Furthermore, based on international experience and modern pedagogical approaches, the role of interactive methods in improving educational effectiveness is substantiated. In addition, the significance of interactive methods in developing students' collaboration, communication, problem-solving, and critical thinking skills is highlighted. The results of the study show that the effective use of interactive methods makes the learning process more dynamic, encourages active student participation, and contributes to deeper and more sustainable knowledge acquisition.*

Keywords: *traditional education, primary school, interactive methods, teaching methods, communicative skills, active learning, teamwork, innovative methods.*

KIRISH

O'qitish metodlari boshlang'ich sinflarning o'qish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalari an'anaviy faqat o'qituvchi faqat so'zlovchi ko'rinishidagi darslar odatiy hol edi. Shunga qaramay, yuqori texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning o'zgarishi, interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarda o'qishga bo'lgan rag'batni va o'rganish darajasini bir qancha yuqori samaraga oshirdi. Interfaol o'qitish metodlari o'ziga xos texnik ko'rsatmalarni, ya'ni o'rganish jarayonida o'quvchilarni faol tarzda band qilish, ularning ishtirokini rag'batlantirish, jamoa bo'lib ishlash va tanqidiy fikrlashni o'z ichiga oladi[1]. Bu metodlar nofaol faqat ma'lumotlarni tinglashdan qochadigan va faol o'rganish faoliyatlarga jalb etadigan, masalan muhokama, jamoaviy ish, tasvirlash, jamiyat taraqqiyotini o'rganish, rolli o'yinlar va muammo va yechimli mashqlarni nazarda tutadi. Interfaol o'qitish metodi shunday muhit yaratadiki, ma'lumotlarni shunchaki nofaol qabul qilishdan ko'ra, unda o'quvchilar o'z bilimlarini faol shaklda o'zlari rivojlantirishadi[2]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarga o'qish jarayonlarida ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ularda chuqur o'rganish, tanqidiy fikrlash qobilyati, yuqori darajali aqliy qobilyat masalan olingan bilimlarni tahlil qilish, sintezlash va baholash darajasini oshiradi. Bunday metodlar shuningdek o'rganishga bo'lgan xohish, ichki ruhlanish va olingan bilimlarni uzoq vaqt saqlab qolish kabilarni rivojlanishiga asos bo'ladi[3]. Bundan tashqari, interfaol o'qitish metodlari faol ishtirok, birgalikdagi faoliyat, kommunikativ qobilyat ya'ni bugungi kundagi talab etilgan faollik darajasini salmoqli tarzda oshiradi. Interfaol o'qitish

metodlarining yana bir ijobiy jihati shundaki, unda turli o'rganish uslublarini yaratish qobiliyati va o'quvchilarni juda ko'p imkoniyatlar bilan ta'minlaydi[4]. Ular bir xil sur'atda o'rganish, olgan bilimlarini ko'rsatib bera olish va bir vaqtda tengdoshlari va o'qituvchi tomonidan fikr-mulohazalar olish imkoniyatini yaratadi. Qo'shimcha qilib aytganda, interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarda mustaqil o'rganish qobiliyatini butun hayoti davomida qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda, o'quvchilarning o'rganish jarayonida interfaol o'qitish o'z samarasini birmunchaga oshirdi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol o'qitish metodlari akademik ish sifatini, o'quvchilarda o'rganishdan qoniqish hissini va umumiy o'rganishga bo'lgan yondashuvga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini aks ettiradi. Intefaol o'qitish metodlari orqali o'quvchilarning baholanishida yuqori ko'rsatkichlar, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar sonining keskin kamayishi bilan an'anaviy ta'lim shaklidan farq qiladi[5]. Qolaversa, ular orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarda tez va jamoaviy qaror qilish, o'z tengqurlari bilan yuzaga kelgan muammo yuzasidan mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshiradi[6].

O'qitish metodlari boshlang'ich sinflarda o'zining ijobiy ta'sirini yuqori darajada ko'rsatishi bilan shuningdek Osiyo mamlakatlarida ulardan biri O'zbekistonda o'z aksini ko'rsatib kelmoqda. Avvallari an'anaviy ma'ruza shaklida ta'lim berish mamlakatimiz ta'lim tizimida ustunlik qilar edi. Shunga qaramay pedagogika istiqbolining oshishi va texnologik integratsiyalar, interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshirishga sabab bo'ldi. Bugungi kunda bunday o'qitish shakli orqali o'quvchilarda liderlik qobiliyati, muoammoga yechim topishda mustaqil fikrlash ko'nikmasi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu qobiliyatlarni erta yoshdan rivojlanganligi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda, o'z-o'zini band qilishda va kelajak istiqbolini oshirishida muhim turki bo'lib kelmoqda[7].

Bu tadqiqotlarni mantiqan olib qaraganda u ko'plab sabablarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, tadqiqotning asosi an'anaviy faqat ma'ruza shaklidagi darslar o'quvchilarning o'rganish samaradorligiga to'laqonli ijobiy ta'sir ko'rsata olmayotgani, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida, chunki ular yosh jihatdan o'yinqaroq va bir xilda harakatsiz ma'lumotlarni tinglash orqali o'zlashtirish ularning bilim olishga bo'lgan xohishini susaytirishi mumkin va bugungi zamonaviy dunyoning o'sib kelayotgan yosh-avlodlari endi aqlan yetuk va o'rganishga bo'lgan qobiliyatlari nisbatan yuqori darajadadir[8]. Bugungi texnologiyalar asrida bolalarni odatiy o'quv muhitiga, samarali bilim olishga yo'naltirish birmuncha mushkul, chunki texnologiyalar asri chalg'ituvchi omillarga ham boydir. Shu sababli bugungi kunda ta'lim tizimiga, dars jarayonlariga noodatiy yondashuvlar, interfaol o'qitish metodlari bilan yondashish zamon talabiga aylanib bormoqda. Albatta, bunday yondashuv pedagog uchun tinimsiz izlanish va zamonaviy qarashlarni talab etadi.

Ikkinchidan, interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish, faol o'rganish, jamoa bilan ishlash, o'quvchida o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish texnikalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarida yuqori natijalarni qayd etmoqda[9]. Bunday metodlardan foydalanish o'quvchining dars jarayoniga faol ishtirokini, jamoaviy faollikni, tanqidiy fikrlash, o'quvchilarni tushunish sifatini oshirishni va uzoq vaqt saqlab qolishni va bilimlarni samarali qabul qilishni ta'minlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot ishlarini olib borish va ularni baholash, ishlab chiqilgan metodika asosida joriy etiladigan zamonaviy ta'lim-tarbiya metodlari hamda usullarining samaradorligini aniqlashni e'tiborga olgan holda, har bir maktab ta'lim tashkilotlar kesimida tajriba-sinov

ishlarida qatnashayotgan o'qituvchilar nazorat va tajriba guruhlariga ajratib olindi. Mazkur guruhlarda reja asosida muntazam ravishda ishlar amalga oshirildi.

Tadqiqot ishimiz doirasida dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlarni rivojlantirish tizimi tajribadan o'tkazildi. Natijada, dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlarni rivojlantirishning baholash tizimi ishlab chiqildi. Tadqiqot ishida dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlarni rivojlantirishning pedagogik natijalari bir necha darajalar (yuqori, o'rta, quyi)ga ajratildi va dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlarni rivojlanganligining daraja, mezon va ko'rsatkichlarini belgilash imkoniyatini yaratdi.

1-jadval.

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	Darajalar		
		Yuqori	O'rta	Quyi
Kognitiv	Dars jarayonida qollaniladigan interaktiv metodlar turlaridan xabardorlik, o'qituvchilik kasbiga doir texnologiyalarni o'ziga xosliklarni bilish, dars sifatini yaxshilash asosida kasbiy faoliyat motivlarining shakllanganligi	Mezon ko'rsatkichlarining mazmun-mohiyatini to'liq anglab etadi va o'zlashtirib olgan, texnologiyalar tarkib topgan, ular asosida ijobiy munosabatlarga kirisha oladi, kasbiy faoliyatda zamonaviy texnologiyalarni qo'llay oladi.	Mezon ko'rsatkichlarining mazmun-mohiyatini anglab etadi, qisman o'zlashtirib olgan; texnologiyalar qisman tarkib topgan, ko'rsatkichlarga qisman amal qiladi.	Mezon ko'rsatkichlarining mazmun-mohiyatini qisman anglab etadi, idrok qila olmaydi, ularni o'zlashtirishda qiyinchiliklar mavjud, texnologiyalarni namoyon qila olmaydi, etaricha tushunchaga ega emas, munosabatlarga kirishishda me'yorlarga etarlicha amal qilmaydi.
Faoliyatli	Zamonaviy texnologiyalar boyicha bilimga egalik, dars sifatini yaxshilashga yetarlicha hissa qo'shish, guruh va yaxlit ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirok etish			
Natijaviy	Vaziyatni tahlil qila bilish va to'g'ri baholash, o'z-o'ziga ishonch, ob'ektiv o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatiga egalik, zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog'liqlikka kirisha olish ko'nikmasiga egalik, egallangan texnologiyalarni qo'llay olish			

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini ijobiy tomonga o'zgartirdi va o'sish ko'rsatkichlarini oshirdi.

2-jadval.

Baho	Tajriba guruhi tajribadan oldin (ta)	Tajriba guruhi tajribadan keyin (ta)	Farqi	Nazorat guruhi tajribadan oldin (ta)	Nazorat guruhi tajribadan keyin (ta)	Farqi
5	7	10	+3	6	8	+2
4	10	12	+2	9	10	+1
3	13	10	-3	11	8	-3

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari interaktiv metodlarning samaradorligi bevosita o'quvchilarning mazkur usullarga nisbatan qarashlari, munosabatlari va tajribalariga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. O'quvchilarning ijobiy qabul qilishi va faol ishtiroki ushbu metodlarning ta'sir kuchini oshiruvchi vositachi omil sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ta'lim jarayonida nafaqat metodlarni joriy etish, balki o'quvchilarda ularga nisbatan ijobiy motivatsion muhitni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologik jihatdan, tadqiqotda miqdoriy va obyektiv yondashuvning qo'llanilishi o'zgaruvchilar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini aniq statistik dalillar asosida aniqlash imkonini beradi. Bu esa olingan natijalarning ishonchliligini va ilmiy ahamiyatini oshiradi.

XULOSA

Tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, ta'lim berishda noodatiy yondashuv, interfaol ta'lim metodlari o'z samarasini berib kelmoqda, har bir soha o'z davrida zamonaviy yondashuv va rivojlanishni talab etadi. Olib borilgan tadqiqot interaktiv o'qitish metodlarining o'quvchilarning o'quv faoliyati va ta'lim natijalariga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Xususan, faol o'rganish, guruhiy muhokama, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda hamkorlikka asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi, ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi va bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bunday pedagogik yondashuvlar natijasida akademik ko'rsatkichlar yaxshilanadi, o'quv motivatsiyasi ortadi hamda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Umuman olganda, interaktiv o'qitish metodlarini ta'lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar faolligini kuchaytirish va samarali o'quv muhitini yaratishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishga, innovatsion metodlarni keng qo'llashga hamda ta'lim siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Afzal, A., Rafiq, S. Impact of teachers' instructional techniques on student involvement in class: A case study. *UMT Education Review*, 5(2), 184–204.
2. Afzal, A., Rafiq, S., Kanwal, A. Relationship between teacher and student and its effect on students' academic achievement. *Gomal University Journal of Research*, 39(1), 55–68.
3. Ahmed, R., Usman, M., Khan, N. Impact of active learning strategies on student engagement and motivation in chemistry: Evidence from Pakistan. *Innovations in Education and Teaching International*, 56(2), 240–251.
4. Ali, S. S., Bansal, A., Sharma, S. K. Interactive teaching methods and their impact on self-directed learning and ownership of learning among engineering students. *Education and Information Technologies*, 26(4), 4547–4565.
5. Baepler, P., Walker, J. D., Driessen, M. It's not about seat time: Blending, flipping, and efficiency in active learning classrooms. *Computers & Education*, 102, 54–65.
6. Betti, A., Domonte, A. G., Biderbost, P. Flipping the classroom in political science: Student achievement and perceptions. *Revista de Ciencia Política*, 40(3), 589–615.
7. Burke, A. S., Fedorek, B. Does "flipping" promote engagement? A comparison of a traditional, online, and flipped class. *Active Learning in Higher Education*, 18(1), 11–24.
8. Charokar, K., Dulloo, P. Self-directed learning theory to practice: A footstep towards the path of being a lifelong learner. *Journal of Advances in Medical Education Professionalism*, 10(3), 135–144.

9. Chemers, M. M., Hu, L. T., & Garcia, B. F. Academic self-efficacy and first-year college student performance and adjustment. *Journal of Educational Psychology*, 93(1), 55–64.
10. Djiwandono, P. The learning styles of millennial generation in university: A study in Indonesian context. *International Journal of Education*, 10(1), 12–19.
11. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., Wenderoth, M. P. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 111(23), 8410–8415.
12. Geng, S., Law, K. M., Niu, B. Investigating self-directed learning and technology readiness in blended learning environment. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 16(1), 1–22.